



Vazirlar Mahkamasini Qarori

**Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini
litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni
tasdiqlash haqida**

80-son, 21.02.2022y.

Qaror bilan

Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risida yagona nizom tasdiqlandi.

Mazkur nizom bilan **28 ta litsenziyalanadigan** faoliyat turlarining pasportlari tasdiqlandi.

Yagona nizomda tartib-taomillar bo'yicha umumiy qoidalar belgilandi.



Endilikda barcha arizalar **elektron tarzda** “Litsenziya” axborot tizimi (*license.gov.uz*) orqali **dam olish va bayram kunlaridan qat’i nazar, har kuni 24 soat davomida** qabul qilinadi.

Fuqarolarning davlat organlariga **“borish” va “kutish”** kabi ortiqcha ovoragarchiliklarga chek qo’yildi.



Qarorga muvofiq



Litsenziya olish uchun **ariza** vakolatli organga “Litsenziya” AT yoki YIDXP orqali taqdim etiladi.

Maxsus elektron tizim orqali litsenziya berganlik uchun yig‘im va davlat boji to‘lovlari amalga oshirilganligi onlayn tekshiriladi hamda QR-kod qo‘yilgan litsenziya blankasi avtomatik ravishda shakllantirilib, talabgorning shaxsiy kabinetiga **elektron shaklda** yuboriladi.



- Litsenziya olishda **talabgorning boshqa kelishiladigan organlardan xulosasini olib, arizaga ilova qilish amaliyoti bekor qilindi.**
- “**Bir darcha**” tamoyili asosida litsenziyalovchi organning “Litsenziya” AT orqali tegishli xulosalarni boshqa organlardan o‘zi oladi, xulosa o‘z vaqtida taqdim etilmasa, **ijobiy xulosa** olingan deb hisoblanadi.
- Litsenziyalovchi hujjatlarning amal qilishini to‘xtatib turish **litsenziyalovchi organ** yoki **sud** tomonidan amalga oshiriladi.



- Talabgorning litsenziya berish haqidagi arizasini birinchi marta ko'rib chiqish jarayonida litsenziya berilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlar talabgor tomonidan to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganda ushbu arizani ko'rib chiqish **rad qilinmasdan** kamchiliklarni bartaraf etish uchun talabgorga **muddat berilishi belgilandi.**



- Talabgor litsenziyalovchi organ qaroridan norozi bo'lsa faqat sudga murojaat qilish emas, nizoni **sudgacha ko'rib chiqish** tartibi belgilandi.
- Endilikda litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorlarni respublika darajasida qabul qiluvchi vakolatli organlarda mavjud xodimlar orasidan **5 kishidan** iborat shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha **Apellyatsiya kengashi** tashkil etiladi.



- **Apellyatsiya kengashi** nizolarni tezkor ko'rib chiqib, qonuniy hal qilish imkoniyatini beradi. Lekin fuqarolar xohlasa apellyatsiya kengashiga murojaat qilmasdan to'g'ridan to'g'ri sudga ham murojaat qilishlari mumkin.



E'tiboringiz uchun rahmat!